



TALABALAR XULQ-ATVORINING IJTIMOY ME'YORLARDAN OG'ISHI SABABLARI VA ULARNI PROFILAKTIKASINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.

Barotov A H

Buxoro davlat pedagogika instituti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o'smirlik yoshida kelib chiqadigan muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari ko'rsatib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *Deviant, qonun, meyor, jinoyat, jamoatchilik, dunyoqarash.*

Аннотация: *В данной статье представлены возникающие проблемы подросткового периода и пути их решения.*

Ключевые слова: *Подросток, закон, норма, преступление, общественность, мировоззрение.*

Annotation: *This article presents emerging problems of adolescence and ways to solve them.*

Keywords: *Teenager, law, norm, crime, public, worldview.*

Deviant xatti-harakatli (xulqi og'ishgan) yoshlar va o'z-o'zini boshqara olmaydigan bolalar hech narsadan tap tortishmaydi, ular uchun qonun-qoidalar yo'q, ular o'qituvchilarini ham, ota-onasini ham tan olmasligi mumkin. Agar bundaylarga o'z vaqtida chora ko'rilmasa, o'z xohish istaklarini jilovlay olmasa, bunday bolalar katta bo'lganda psixopat yoki ba'zi hollarda qonunbuzar bo'lib yetishishi mumkin.

O'smirlik – shaxs shakllanishidagi eng muhim palla, tengdoshlari va atrofdagilar bilan o'zini qiyoslab, o'z holatidan, ko'rinishidan qoniqmaslik, ikkilanishlar davri hisoblanadi. Sababi o'smir bu davrda sekin-asta zaruriyatni anglab, ma'lum bir erkinlikka erisha boshlaydi, shunga ko'ra u qaror qabul qilish qobiliyatiga ega bo'lib boradi, ya'ni jamoatchilik rivojlanishining qonuniyatlari asosida mas'uliyat bilan harakat qila boshlaydi. Shu tufayli o'smirlik davri turli qarama-qarshi kechinmalar, qiyinchiliklar va krizislar bilan to'lib-toshgan. Shuning bilan birgalikda, bu davr bolalik hissiyotlarining yo'qolishi, xavotir tuyg'usi va psixologik noqulaylikning paydo bo'lish davridir.

O'smirlik davrini ko'pincha rivojlanishdagi proporsiyaning buzilishi davri deb ham ataydilar. Bu yoshda o'zining jismoniy xususiyatlariga e'tibor ortib, atrofdagilarning fikriga reaksiya kuchayadi, shaxsiy izzat-nafsi va xafagarchilik tuyg'usi ko'tariladi. Jismoniy kamchiliklar ko'pincha bo'rttiriladi. Dastavval, bolalik yoshiga solishtirganda o'z tanasiga ortib boruvchi e'tiborga nafaqat jismoniy o'zgarishlar, balki o'smirning yangi ijtimoiy roli ham sababdir. Atrofdagilar o'smirdan jismoniy yetuklik evaziga rivojlanishning ma'lum bir muammolarini o'zlari uddalashlarini kutadilar. Kattalar g'amxo'rlikidan chiqishga intilib, o'smir o'zining ulg'ayayotgan «Men»ini erkin his qilishi uchun vaqtinchalik namoyon qila olish



imkonini izlaydi. Buni u bo'sh vaqt muhitidan topadi. O'smir hayotida bo'sh vaqt ustuvor xarakterga ega. Bu vaqtni voyaga yetmaganlar uydan tashqarida, tengdoshlari kompaniyasida o'tkazadilar. Ota-onalar o'smirning maktabdan tashqari vaqtdagi muloqotlariga ta'sir o'tkazmoqchi bo'ladilar, go'yoki ularning nazarida farzandlarini istalmagan aloqadan himoya qiladilar. Buning natijasida odamovi, yolg'izlikni xush ko'radigan o'smirlar paydo bo'ladilar. O'smirlar axloqiga, birinchi navbatda, tashqi ijtimoiy muhit (mikromuhit : oila, sinfdagi, maktabdagi sharoit, bu muhitning qolgan a'zolari bilan munosabatda), shuningdek, o'smir shaxsining turli «hayotiy omadsizliklar»ga reaksiya qilishiga bog'liq individual xususiyatlari ta'sir ko'rsatadi.

O'smir moslashmaganligining turli ko'rinishlarida ifodalanuvchi xulqi og'ishganlik nofarovon psixoiijtimoiy rivojlanish va ijtimoiylashuv jarayonining buzilishi natijasidir. Axir o'smir bu davrda o'z-o'zini har tomonlama anglashga, boshqa odamlar orasidagi o'z o'rnini topishga intilarkan, atrofidagi katta odamlarning qiliqlari, harakatlaridagi bir qancha sifatlarga havas bilan qaraydi, bu sifatlarni o'zida topa olmay qiynaladi. Ba'zida hatto o'zini to'laqonli emasday his qiladi. Shunday paytda bolaga birinchi yordam qo'lini atrofidagi yaqin odamlari, avvalo, ota-onasi, ustoz-murabbiyi cho'zmoqligi darkor. Ma'lumki, bola dastlab ota-onasidagi xislat va fazilatlarni ko'radi, keyin esa boshqa atrofdagilar bilan solishtirishni boshlaydi. Shunday ekan, ota-onalar farzandlari qalbiga yo'l topa bilishlari lozim. Xulqi og'ishgan (maktabdan qochib ketadigan, tengdoshlariga doimiy halaqit qiladigan, sinfdoshlarining jig'iga tegadigan) bolalar kattalarning har qanday qo'llab-quvvatlashlariga muhtoj bo'ladilar. Ota-onalar sinf rahbari, o'qituvchi va maktab psixologlari yordamida bolaga ma'naviy yordam berishlari lozim bo'ladi.

O'smirlik yoshi – uning dunyoqarashi, e'tiqodi, nuqtai nazari, prinsiplari, o'zligini anglashi, baholashi va hokazolar shakllanadigan davr sanaladi. Kichik maktab yoshidagibola kattalarning ko'rsatmalari yoki o'zining tasodifiy, ixtiyorsiz orzu-istaklari bilan harakat qilsa, o'smir o'z faoliyatini muayyan prinsip, e'tiqod va shaxsiy nuqtai nazari asosida tashkil qila boshlaydi.

O'smir shaxsning tarkib topishida axloq, o'ziga xos ong alohida ahamiyat kasb etadi. Bunda o'quvchilarning axloqiy tushunchalarni o'zlashtirishi va ularni turmushga tatbiq etishi muhim rol' o'ynaydi. Umuminsoniy xislatlarni shakllantirish jarayoni o'quvchidagi ishonch, aqida, nuqtai nazarning qarama-qarshiliklariga duch keladi. Ijtimoiy turmushni kuzatish, undagi inson uchun zarur ko'nikmalarni egallash unga kattalar xulq-atvorini tahlil qilish imkoniyatini yaratadi. Natijada favqulotda holatlarda katta yoshdagi odamlarning tutgan yo'li va uslubini baholash kabi hayotiy ko'nikmasi tarkib topa boshlaydi.

O'smirlar jinoyatchiligi tahlili uni keltirib chiqaruvchi omillar sifatida quyidagilarni ko'rsatadi:

- oila va turmushdagi salbiy ta'sirlar;
- nosog'lom turmush tarzi;
- yomon xulqli shaxslar bilan aloqada bo'lish;



- o'qimaydigan voyaga yetmaydiganlarning uzoq vaqt mobaynida muayyan foydali mashg'ulot bilan band bo'lmasligi;
- katta yoshdagi jinoyatchilar tomonidan huquqbuzarliklarga va turli g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarga jalb qilinishi;
- zo'rlik ishlatishlar, yozilgan turli kitob va videofil'mlarning ta'siri;
- hayotdagi omadsizliklar va axlokiy e'tiqodlarning turg'un emasligi;
- ruhiy holatdagi ayrim sifatlar;
- ommaviy madaniyatning salbiy ta'siri;
- ayrim harakatlarga nisbatan qiziquvchanlik va shunday harakatlarni sodir etishga moyillikning kuchayishidir.

O'smirlarning jinoyat sodir etishiga turli omillar sabab bo'ladi. Bu omillar aynan oila bilan bog'liq bo'lib, yuz foiz deb olinganda, uning chamasi 30 % notinch, axloqsiz, janjalkash oilalar hissasiga to'g'ri kelsa, tashqi tomondan «tinch» ko'rinuvchi, lekin farzandlarining tarbiyasiga be'etibor bo'lgan oilalar 60% ni tashkil etishini kuzatish mumkin.

O'smirlar ruhiyatining g'ayriijtimoiy ko'rinishlarga imkon beruvchi holatlarni quyidagilarda ko'ramiz:

- eng muhim ma'naviy tushunchalar (botirlik, qo'rqqoqlik, sadoqat, sotqinlik, do'stlik, xiyonat, qahramonlik, mardlik, kamtarinlik va boshqalar) haqiqiy mazmuni va ahamiyati to'g'risida buzilgan tasavvurlar;
- ayrim shaxslar, voqealar, hodisalarni baholashda xato qilish. insonni barcha xususiyatlari va sifatleri yig'indisiga ko'ra baholay olmaslik;
- insonni haqiqiy motivlari va maqsadlarini hisobga olmay, uning xulk-atvoriga oid tashqi ko'rinishlarini afzal ko'rish;
- shaxsning shakllanishi, organizmning jismoniy va ma'naviy rivojlanishi, to'la voyaga yetish jarayoni bilan bog'liq bo'lgan ruhiyatning o'zgaruvchanligi;
- his-tuyg'ularni jilovlay olmaslik, o'zgaruvchanlik, o'ta ta'sirchanlik, kayfiyatning tez-tez o'zgarishi;
- zarur bilimlari va tajribasi bo'lmagan holda atrof-muhitga, barcha yangi, notanish narsalarga keskin munosabat;
- jismoniy faollik, tashabbuskorlik, hayotiy faoliyatning kuchayishi oqibatida sarflanmagan kuch-quvvatning xaddan oshib ketishi;
- har qanday yo'l bilan mustaqil bo'lishga, o'z shaxsiyatining ahamiyatini tan oldirishga intilish. maslahatlar, kattalarning pedagogik pand-nasihatlarini va boshqa tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish shakllarini xush ko'rmaslik;
- o'zining «katta» bo'lib qolganligini ko'rsatish va isbotlash istagi;
- ta'sirga beriluvchanlik, o'ta ishonuvchanlik, taqlidga moyillik.

Mazkur jarayonda o'smirlarni turli xil salbiy ommaviy madaniyatdan himoyalash va sog'lom turmush tarzi ko'nikmalari vositasida tarbiyalash jarayoni quyidagi vazifalar asosida amalga oshirishi maqsadga muvofiqdir.



Ya'ni: o'smirlar orasida sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini tarkib toptirish va rivojlantirishning didaktik asoslarini aniqlash;

darsdan tashqari ishlar va sinfdan tashqari mashg'ulotlarda sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini tarkib toptirish texnologiyalarini ishlab chiqish va o'qituvchilarga metodik ko'rsatma sifatida tavsiya etish;

o'smirlarning o'z salomatligini saqlash va mustahkamlashga ongli yondashuv zaruriyati va mas'uliyatini kuchaytirish asosida «Fiziologik salomatlik» o'quv dasturini yaratish va undan foydalanish metodikasini ishlab chiqishdan iborat.

2022–2023 yillar davomida Xalq ta'limi tizimidagi ta'limni boshqarish organlari, umumta'lim maktablari bilan hamkorlikda o'quvchilar orasida jinoyatchilik va huquqbuzarliklarni oldini olish borasida bir qator tashkiliy va amaliy tadbirlar amalga oshirildi. Jumladan, jinoyatchilik va huquqbuzarliklar sodir etishga moyil yoshlarni o'z vaqtida aniqlab, sog'lom turmush tarziga qaytarish maqsadida 2018 yilning mart oyida Hamkorlik memorandumini hamda «Umumta'lim maktablaridagi mashg'ulotlarga sababsiz qatnashmayotgan o'quvchilarni o'qishga qaytarishni ta'minlash maqsadida «Davomat» tadbirini amalga oshirish yo'lga qo'yildi va nazorat ostiga olindi.

Xullas o'smir yoshlar nazoratsizligi, qarovsizligini oldini olish, ular tomonidan jinoyatchilik va huquqbuzarliklar sodir etilishiga yo'l qo'ymaslik, turli salbiy ta'sirlardan ularni saqlash maqsadida barcha umumta'lim maktablari bilan hamkorlikda profilaktik-ogohlantiruv tadbirlari o'tkazish bugungi kunnig dolzarb vazifasi bo'lib hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Рахмонов, Р. Р., Самандаровна, Қ. Д., & Норова, Д. Х. (2022). БУХОРО ВИЛОЯТИ СУВ ҲАВЗАЛАРИДА УЧРАЙДИГАН НОДИР ВА КАМЁБ БАЛИҚХЎР ҚУШЛАР БИОЛОГИЯСИ ВА ЭКОЛОГИЯСИГА ДОИР МАЪЛУМОТЛАР. AGROBIOTEXNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIY JURNALI, 1(1), 28-34.

2. Kalandarova, D., & Karimov, D. (2022). BIOLOGIYA FANINI O'QITISHDA MULTIMEDIADAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI. Science and innovation, 1(B8), 2276-2279.

3. Kalandarova, D. S., & Bakayeva, S. B. (2022). BIOLOGIYA O'QITISH METODIKASIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINI O'RNI. Central Asian Academic Journal of Scientific Research, 2(2), 43-47.

4. Samandarovna, K. D. Toshtemir o'g'li, KD (2024). AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING BIOLOGIYA FANLARIGA TA'SIRI. O'ZBEKISTONDA TEXNIKA FAN TADQIQOTLARI, 2(2), 243-249.

5. Қаландарова, Д. С. (2021). МЕТОДИКА РЕШЕНИЯ ЗАДАЧ ПО БИОЛОГИИ. Scientific progress, 2(1), 1609-1611.



6. Каландарова, Д. (2020). Использование зеленой хлореллы, выращенной в органоминеральной среде, в качестве пищевых продуктов в рыбоводстве. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 2(2).

7. Raimov, A. R., Bakayeva, S. B., & Kalandarova, D. S. (2024). Ecological groups of mammals found in Bukhara region and adjacent areas. In E3S Web of Conferences (Vol. 538, p. 03008). EDP Sciences.

8. Каландарова, Д., & Рахмонова, Ш. (2025). МЕТОДИКА ОРГАНИЗАЦИИ САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ РАБОТЫ СТУДЕНТОВ В КРЕДИТНО-МОДУЛЬНОЙ СИСТЕМЕ ПО ПРЕДМЕТУ АНАТОМИИ И ФИЗИОЛОГИИ ЧЕЛОВЕКА. Молодые ученые, 3(1), 21-23.

9. Каландарова, Д. С., & кизи Студентка, П. З. З. Н. (2024). МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ БИОЛОГИИ ИХ ОСОБЕННОСТИ И УСЛОВИЯ ПРИМЕНЕНИЯ ПРАКТИЧЕСКИЕ МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ. ZAMONAVIY TA'LIMDA FAN VA INNOVATION TADQIQOTLAR, 2(4), 27-32.

10. Каландарова, Д. С. (2024). УЧЕБНЫЙ ПРЕДМЕТ «БИОЛОГИЯ». МЕТОДИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ДОКУМЕНТОВ, РЕГЛАМЕНТИРУЮЩИХ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ УЧИТЕЛЯ БИОЛОГИИ. International journal of scientific researchers (IJSR) INDEXING, 4(2), 36-39.

11. Каландарова, Д. (2022). МЕТОДИКА ФОРМИРОВАНИЯ УМЕНИЙ И НАВЫКОВ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ БИОЛОГИИ. Евразийский журнал академических исследований, 2(13), 38-41.

12. Kalandarova, D. (2022). Talabalarda mediatexnologiyalardan foydalanish kompetentligini rivojlantirishning mazmun-mohiyati. Buxoro davlat pedagogika instituti jurnali, 2(2).

13. Павлова, В. (2023). ИСПОЛЗВАНЕ НА КОНТЕКСТ В ОБУЧЕНИЕТО ПО ХИМИЯ ЗА АНГАЖИРАНOST НА УЧЕНИЦИТЕ ОТ IX КЛАС ПО ТЕМА" ЕДНОВАЛЕНТНИ АЛКОХОЛИ". Natural Science & Advanced Technology Education, 32.

14. Каландарова, Д. (2020). THE USEFUL WORDS WE NEED IN ENGLISH. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 2(2).

15. Djurayevna, K. M. (2021). Russian Language as A Foreign Language in Medical Universities. Eurasian Journal of Research, Development and Innovation, 3, 14-18.

16. Койилова, М. Д., & Кароматов, И. Д. (2017). Фасоль как лечебное средство (обзор литературы). Биология и интегративная медицина, (8), 114-133.

17. Койилова, М. Д. (2018). Синяк обыкновенный, итальянский. Биология и интегративная медицина, (9), 117-121.
академических исследований, 3(9), 137-141.

18. Койилова, М. Д. (2020). Изменение Культуры Семейных Ценностей В Условиях Перехода К Модели Современной Семьи. In Сборники конференций НИЦ Социосфера (No. 8, pp. 164-167). Общество с ограниченной ответственностью Научно-издательский центр" Социосфера".



19. Djuraevna, K. M. (2023). Methodology of Inclusion of Healthy Lifestyle Skills in Adolescents with Deviant Behavior.

20. QURBONOVA, G., & KOYILOVA, M. DEVIANT XULQLI O'SMIRLARNI MEHNAT VOSITASIDA TARBIYALASH. Pedagogik mahorat, 102.

21. Qoyilova, M. (2022). Xulqi og 'ishgan o 'smirlarni mehnat vositasida tarbiyalash. Buxoro davlat pedagogika instituti jurnali, 2(2).

22. Mekhriniso Qoyilova. The need for professional competence development in the training of senior nurses. Jamiyat va innovatsiyalar – Obşestvo i innovatsii – Society and innovations Journal home page: <https://inscience.uz/index.php/socinov/index>

23. Khoyilova Mekhriniso Djuraevna MIDDLE EUROPEAN SCIENTIFIC BULLETIN ISSN 2694-9970 Middle European Scientific Bulletin, VOLUME 17 Oct 2021 Copyright (c) 2021 METHODS OF FORMATION OF POSITIVE BEHAVIOR IN ADOLESCENTS.

24. Qoilova , M. (2023). DEVELOPMENT OF CREATIVE ABILITIES IN THE TRAINING OF SENIOR NURSES THROUGH THE STRUCTURAL ANALYSIS OF PROFESSIONAL COMPETENCE AND PROFESSIONAL MOBILITY. Yevraziyskiy jurnal akademicheskix issledovaniy, 3(9), 137-141. izvlecheno ot <https://inacademy.uz/index.php/ejar/article/view/20623> DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.8371586>